



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
informatika va axborot texnologiyalari
fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 3-sinf II yarim
yillik uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 3-sinf uchun informatika va axborot texnologiyalar fanidan
II yarim yillik taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ijtimoiy tarmoqlar	1		
2.	Raqamli iz	1		
3.	Raqamli xavfsizlik	1		
4.	Kiberbulling	1		
5.	QR-kod	1		
6.	Virtual muzeylar	1		
7.	Virtual sayohatda “sayr qilish”	1		
8.	To‘dirilgan reallik (AR)	1		
9.	Virtual reallik (VR)	1		
10.	BSB - 3 (25 ball). Mening ijtimoiy tarmog‘im” loyihasi	1		
11.	Kompyuter turlari	1		
12.	Kiritish va chiqarish qurilmalari	1		
13.	Dasturiy ta’minot	1		
14.	Aqlli texnologiyalar	1		
15.	Zamonaviy texnologiyalar va raqamli olam	1		
16.	Atrofimizdagi robotlar	1		
17.	Onlayn ta’lim	1		
18.	ChSB- 2 (40 ball). Yakuniy dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ijtimoiy tarmoqlar

Maqsadlar:

a) ta'limiy-o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, texnologiyalar va kompyuterlarning hayratlanarli olami bilan tanishtirish, zamonaviy atamalarni va algoritmlar tuzishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mulohaza yuritishni, yechim topishni va bilimlarni tartibga solishni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi: informatika va axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishini oshirish, ilmiy-texnik dunyoqarashini rivojlantirish.

Mashg'ulot turi: ta'lim beruvchi, interfaol.

Mashg'ulot o'tish metodi: aqliy hujum, aralash, interfaol.

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, elektron materiallar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Sotsial so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda **ijtimoiy** degan ma'noni anglatadi. Ushbu tushunchadan foydalanib, **ijtimoiy tarmoqlar** iborasini tushuntirib bera olasizmi?

Agar odamlar yangiliklar, fotosuratlar yoki videolarni do'stlari bilan bo'lishmoqchi bo'lsalar, ular ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. **e-maktab** ta'lim platformasida ijtimoiy tarmoqlardagiga o'xshash quyidagicha funksiyalar mavjud:

- muloqot (xabarlar, izohlar, bildirishnomalar);
- axborotlar almashinuvi;
- foydalanuvchilar (o'qituvchi, ota-onalar, o'quvchilar)ning yagona muhitda birlashuvi.

Ijtimoiy tarmoqlar - internetdagi maxsus sayt va ilovalar bo'lib, unda odamlar muloqot qiladilar, ma'lumot almashadilar, fotosurat va videolar joylashtiradilar, xabarlar yuboradilar va izohlar qoldiradilar. Ijtimoiy tarmoqlar – nafaqat do'stlar bilan muloqot qilish, balki yangiliklardan xabardor bo'lish, qiziqarli videolar topish, hattoki o'qishning yana bir boshqa usulidir. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar **akkauntlar**, ya'ni o'z shaxsiy sahifalarini yaratadilar. Ushbu sahifalarda o'z fotosuratini joylash, o'zi haqida ma'lumot



berish, yangiliklar bilan bolishish va boshqa odamlarning xabarlariga javob berish mumkin. Kimdir sizning hayotingizga qiziqsa, u sizning **obunachingiz** bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan barcha rasm, video, matn va audio fayllar **kontent** deb ataladi. Internet orqali muloqot qilish va axborot almashish uchun odamlar **raqamli muloqotdan** foydalanadilar. Bu jarayonlar smartfon ekranlari orqali **xabar, video, layk** va izohlar yordamida amalga oshiriladi.



1. Berilgan so'zlardan foydalanib, **ijtimoiy tarmoqlardan** qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini ayting.

Berilgan so'zlar:



Ijtimoiy tarmoq - odamlar muloqot qiladigan va foto, video hamda yangiliklarni o'zaro bo'lishadigan internetdagi sayt. **Raqamli muloqot** telefon, planshet yoki kompyuter yordamida internet orqali amalga oshiriladigan yozishmalar va qo'ng'iroqlardir. **Akkaunt** har bir odamning ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy sahifasi bo'lib, unda yozish, fotosurat joylash va muloqot qilish mumkin. **Kontent** ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan matn, rasm, video va shu kabi boshqa narsalardir. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar fotosurat, video va xabarlarga o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Buning uchun maxsus belgilar - emojilardan foydalaniladi. **Emoji** - kichik rasm yoki belgilar bo'lib, ular **ijtimoiy tarmoqlarda his-tuyg'ular va harakatlarni ifodalashga** yordam beradi.

2. Tasavvur qiling, o'qituvchingiz sizga internetda iste'mol sodasi yordamida vulqon va lava qanday hosil bolishi haqida so'z boradigan videoni ko'rib kelish vazifasini topshirdi.

O'qituvchingiz sizdan video yoki fotosurat ostida o'z fikringizni qoldirishingizni so'raydi, bu izoh qoldirish deb ataladi.	
Agar sizga xabar yoki video yoqsa , uni yurakcha yoki layk – bosh barmoq belgisini bosish orqali baholashingiz mumkin.	
Yana siz videoni boshqalar bilan bo'lishishingiz ham mumkin. Masalan, uni do'stingizga, o'qituvchingizga yoki ota-onangizga yuborib, ularning ham ko'rishlariga imkon yaratishingiz mumkin.	
Sizning barcha harakatlaringiz o'qituvchilar, sinfdoshlar, do'stlaringiz va boshqalarga ko'rinib turadi. Siz ham ularning izohlarini o'qib, kimga nima yoqishini bilib olishingiz mumkin.	

3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda qanday **xavflarga** duch kelishimiz mumkinligini o'ylab ko'ring. Bunday xavflardan qanday himoyalalanish mumkin? Ijtimoiy tarmoqlardagi xavflar:

shaxsiy ma'lumotlardan begonalarning bemalol foydalanish imkoniyati mavjudligi;
ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalar vaqtida biz ko'pincha grammatika va punktuatsiya qoidalarini unutimiz, kamroq so'z ishlatamiz, hissiyotlarni esa smayliklar bilan almashtiramiz. Shu sababli fikrlarimizni aniq ifodalash va real hayotda odamlar bilan muloqot qilish bizga qiyin bo'lishi mumkin;

ijtimoiy tarmoqlarni doimiy kuzatish ularga qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin;

internetda odamlar hayotini kuzatish o'zimizni ular bilan solishtirishimizga va o'zimizni past baholashimizga olib kelishi mumkin.

4. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning oddiy ("jonli") muloqotdan uchta farqini ayting.



"jonli" muloqot



ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Berilgan so'zlardan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlarda begona odamlarga aynan nimalarni aytmaslik kerakligi haqida o'ylab ko'ring. **Berilgan so'zlar:**

isingiz va familiyangiz

telefon nomeringiz

yashayotgan manzilingiz

shaxsiy fotosuratingiz

maktabingiz nomeri

ota-onangizning ismlari

plastik kartalaringiz nomeri

elektron pochta va shaxsiy sahifalaringiz paroli



V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Savollarga javob bering.

1. Ijtimoiy tarmoq nima? Siz qanday ijtimoiy tarmoqlardan foydalanasiz va ular sizga nima uchun kerak?

2. Ijtimoiy tarmoqlarda qanday o'zni tutish qoidalariga amal qilish kerak?

3. Raqamli muloqot nima? Raqamli muloqot oddiy muloqotdan nimasi bilan farq qiladi?

4. Raqamli muloqotga misollar keltiring.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Raqamli iz

Maqsadlar:

a) ta'limiy-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, texnologiyalar va kompyuterlarning hayratlanarli olami bilan tanishtirish, zamonaviy atamalarni va algoritmlar tuzishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mulohaza yuritishni, yechim topishni va bilimlarni tartibga solishni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi: informatika va axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishini oshirish, ilmiy-texnik dunyoqarashini rivojlantirish.

Mashg'ulot turi: ta'lim beruvchi, interfaol.

Mashg'ulot o'tish metodi: aqliy hujum, aralash, interfaol.

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar, elektron materiallar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Siz qachonlardir izoh yozganmisiz yoki layk bosganmisiz? Sizningcha, buni kim ko'rishi mumkin? Internetda qilgan ishlaringizning hammasi ham faqat sizning qurilmangizda qoladimi? Internetdan foydalanganda - video ko'rganda, nimanidir qidirganda, o'yin o'ynaganda yoki layk bosganda siz iz qoldirasiz. U ko'rinmas, lekin haqiqiy. Bu **raqamli iz** debataladi. **Raqamli iz** internetda biror ish qilganingizda paydo bo'ladi. U saytlar va ilovalarda saqlanadi va sizga nima yoqishini, nimalarga qiziqishingizni va hatto qayerda bo'lganingizni ham ko'rsatishi mumkin. Mana raqamli iz qoldiruvchi harakatlarga doir misollar:



Raqamli iz - internetdan foydalanganda qoldiriladigan axborot izi. Har safar siz veb-saytga kirganingizda, ilova yuklaganingizda yoki onlayn o'yin o'ynaganingizda siz haqingizda ma'lum axborot – nima ko'rganingiz, qancha vaqt sarflaganingiz, nimaga va qanday javob berganingiz haqida axborot saqlanadi. Hatto biz xabarlarini o'z qurilmalarimizdan o'chirib tashlaganimizda ham, ular boshqalarning **telefon** yoki **kompyuterlari xotirasida** saqlanib qoladi. Kelajakda bu axborot sizni yoki yaqinlaringizni internet va ijtimoiy larmoqlarda obro'sizlantirish yoki sizga nisbatan tovlamachilik harakatlari sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin. **Shu sababli internetda nimadir yozish, joylash yoki qidirishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish muhimdir.**

1. Qanday harakatlar **raqamli iz** qoldirishini o'ylab ko'ring. Nima uchun?

	harakat
1	video ostiga layk bosish
2	qog'ozga rasm chizish
3	internetda izoh yozish
4	uyda stol o'yini o'ynash
5	internetdan axborot qidirish

Aqlli foydalanuvchi maslahatlari:

- nimanidir joylashdan oldin o'ylab ko'ring;
- o'zgalarning fotosuratini joylashdan oldin ulardan ruxsat so'rang;
- nojoiz, behayo gaplarni yozmang;
- parollaringiz va shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qiling.

2. Bolalardan qaysi biri notog'ri ish qilganini ayting. Nima uchunligini tushuntiring.

Raqamli izingiz haqida qanday qayg'urishingiz kerak?

Nimadir joylashdan oldin o'ylang:

izoh yozish, layk bosish yoki fotosuratni joylashdan oldin o'ylab ko'ring: buni ota-onangiz, o'qituvchingiz yoki barcha sinfdoshlaringiz ko'rishini xohlagan bo'larmidingiz?

Shaxsiy ma'lumotlaringizni asrang:

internetda hech qachon uy manzilingiz, telefoningiz yoki maktabingiz nomerini yozmang. Bu - shaxsiy!

Foydalanmaydigan narsalaringizni o'chirib tashlang:

agar biror sayt yoki akkauntidan foydalanmayotgan bo'lsangiz, uni butunlay o'chirib tashlang yoki vaqtincha o'chirib qo'ying.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Savollarga javob bering.

1. Raqamli iz nima?
2. Nima uchun internetda biror narsani yozishdan oldin o'ylash muhim?
3. Qanday qilib yaxshi raqamli iz qoldirish mumkin?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Savollarga yozma javob bering.

1. Odamlar sizning raqamli izingiz orqali nimalarni bilishlarini xohlaysiz?
2. Ijtimoiy tarmoqlarda qanday kontentni joylaysiz?
3. Sizning raqamli izingiz yaxshimi?

O'IBDO':

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

46 listdan iborat informatika fanidan 3-sinf II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**